

---

## TUMANIMIZDA KENG KO'LAMDAGI OBODONLASHTIRISH ISHLARI OLIB BORILMOQDA

Obodonlashtirish va tozalik oyligi tadbirlari tumanimizda ham uyushqoqlik bilan tashkil etilmoqda. Ayni kunlarda mahallalarda va mehnat jamoalarida obodonlashtirish, ariq-zovurlar, xiyobonlarni tozalash ishlari amalga oshirilmoqda.

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi xodimlari tomonidan olib borilayotgan mazkur tadbir davomida yo'llar atrofidagi daraxtlarni oqlash, maishiy chiqindilardan tozalash, gul ko'chatlari ekish ishlari jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, mahallalar ichki yo'llari ta'mirlanib, aholi uchun qulayliklar ham yaratilmoqda. Joriy yilda "Ochiq byudjet" platformasi orqali Xonariq hamda Besarang MFYlar hududlaridagi ko'chalarda asfaltlashtirish ishlari sifatli yakuniga yetkazildi. "Obod qishloq" davlat dasturiga asosan Xonaqa MFYda 500 metr, Xo'jaariq MFYda 500 metr, Axshakguzar MFY hududida 500 metrlik piyodalar yo'llaklari qurib bitkazildi.

**Toshloq tumani hokimligi axborot xizmati.**

2022-08-08 16:12:35